



Tadqiqot.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Ҳуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих саҳифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантариш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидаги инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



Crossref



conferences.uz

No 18
31 июль

JISMONIY TARBIYA VA SPORT JARAYONIDA

MA'NAVIY-MA'RIFIY QADRIYATLARNING UZLUKSIZLIGI

*Fazliddinov Farhod Savriyevich
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Telefon: +998914491306*

Annotatsiya: Maqlolada yoshlarimizning sog'lom, har tomonlama chiniqqan, teran fikrli, o'tkir zakovat egasi bo'lib yetishishi uchun ma'naviy qadriyatlarimizning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, buyuk ajdodlar, sog'lom avlod, qadriyat.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablarini amalga oshirishning yo'llaridan biri har bir fanni o'qitishda ta'lim bilan tarbiyaning integratsiyasiga alohida e'tibor berishdan iboratdir. Ta'lim berish davomida ota-bobolarimizning boy intellektual me'rosi hamda umumbashariy qadriyatlarimizni yoshlarimiz ongiga singdirib borishning ahamiyati kattadir.

Shu sababli jismoniy tarbiya darslarini olib borishda talabalar ongiga ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarimizning tarkibiy qismlari bo'lmish milliy o'z-o'zini anglash, milliy his-tuyg'ular, milliy g'urur va buyuk ajdodlarga hurmatni singdirish haqida ma'lumot berish kerak. Oldimizga quyilgan maqsadni amalga oshirish uchun diyorimizda yashab o'tgan buyuk allomalarimiz ijodi, namunalari bayon qilingan manbalar o'rganilib chiqildi. Bulardan tashqari, chet elliq olimlarning buyuk allomalarimiz haqidagi fikrlari ham taxliliy o'rganilib chiqildi va natijada jismoniy tarbiya darslarida talabalarning milliy istiqlol g'oyasiga sadoqatli mutaxassislar qilib tarbiyalashga keng imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi.

Yangi avlod bo'sag'asida kamol topayotgan yoshlar tarbiyasi o'ta muhim dolzarb muammo ekanligi barchaga ayon. Yoshlarimizning sog'lom, har tomonlama chiniqqan, teran fikrli, o'tkir zakovat egasi bo'lib yetishishi jamiyatimizning porloq kelajagini ta'minlaydi. Bu g'oya azaldan ota-bobolarimiz ma'naviyatida aks etib kelgan. O'zbekiston o'zining uzoq va katta tarixiga ega. Xalqlarning madaniyati, turli urf odatlari, ijtimoiy turmush sharoitlari va ma'naviy qadriyatlari juda ko'p rasmiy manbalarda o'z aksini topgan.

Markaziy Osiyo xalqlari olimlarining tarixiy g'oyalarini o'rganish orqali yoshlarni jismoniy barkamollik bilan bir qatorda ularda chin insoniy tuyg'ularini, milliy qadriyatlarimizni saqlash, Vatanga mehr-shavqatli bo'lism, ota-onas oldida burch va sadoqatni chuqur anglash ruhida tarbiyalash lozim.

Abu Ali Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek kabi buyuk zotlarga voris farzandlar ekanmiz, ularning ta'lim-tarbiyaga oid g'oyalarining davomchilari bo'lib, Vatanimizning porloq kelajagi uchun o'z hissamizni qo'shmog'imiz lozim. Davlatchiligidan asoslarini yaratib kelgan Temur bobomiz g'ayrat shijoati, yuksak aql-zakovati, tadbirkorligi, elparvarligi bilan bizga hamisha ibrat bo'lib kelgan.

Yurtimizda milliy qadriyatlarni qayta tiklash, aholining ma'naviy-ma'rifiy madaniyatini yanada yuksaltirish doirasida o'tkazilayotgan Navro'z, Mustaqillik kuni, hosil bayrami, kasb-mehnat bayrami va boshqa turli an'anaviy madaniy tadbirdarda xalq milliy o'yinlaridan keng foydalanilmoqda. Yoshlarda milliy g'urur va iftixon tuyg'ularini shakllantirish, ularni yanada takomillashtirish yo'lida olib borilayotgan ulug'vor tadbirlar tarkibida xalq milliy o'yinlaridan «Alpomish o'yinlari», «To'maris o'yinlari», Respublika festivallari hamda «Mahalla polvonlari» shaklida sport musobaqalari e'tiborga molikdir. O'zbek halq milliy harakatlari o'yinlarining ijtimoiy-madaniy hamda tarbiyaviy muhitimizda o'ziga xos pedagogik xususiyatlari haqida D.N.Nasritdinov, J.T.Toshpo'latov, A.O.Atoev, T.S.Usmonxo'jaev va boshqa juda ko'p taniqli olimlar o'z mulohazalarini izhor etishgan.

Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari, oliy o'quv yurtlarining «Jismoniy tarbiya dasturlariga» ba'zi bir milliy harakatlari o'yinlar kiritilgan. Bu o'yinlar orqali bolalar, o'quvchi-yoshlar va talabalarga milliy qadriyatlarimiz mazmuni, ma'naviy-ma'rifiy madaniyatimiz boyligi va eng muhimmi, milliy g'urur, iftixon his-tuyg'ularini singdirib borishga imkoniyatlar yaratilmoqda.

Demak, boy ma'naviy-ma'rifiy merosimiz bor ekan, yuragida milliy g'ururi bor va shu zaminning farzandi ekanligidan faxrlana oladigan hamda o'tmishi

buyuk ajdodlarimizning sodiq davomchisiman degan, har bir o'qituvchi qanday fanni o'qitishidan qat'iy nazar o'z shogirdlarining ma'naviy dunyosini yuksaltirishga ham mas'uldir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaev A., Xonkeldiev SH. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti, 2015 yil.

2. Goncharova O.V. Yosh sportchilarining jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O'zbekiston Davlat jismoniy tarbiya instituti 2018 yil.